



QASHQADARYO VILOYATI ORNITOFAUNASINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.Y.Raxmatullayev G'.I.Narzullayev A.X.Ruyiddinov

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Qashqadaryo viloyati ornitofaunasining ekologik xususiyatlari, Dehqonobod va Sandikli ovchilik xo'jaligi hududlarida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyatda 13 turkum, 25 oilaga mansub qush vakillarining turlari uchrashligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: ornitofauna, monitoring, qush, turkum, oila, tur, Dehqonobod, Sandikli, ovchilik, ekotizm.

Аннотация: изучены экологические особенности орнитофауны Кашкадарьинской области в Дехханабадском и Сандыклинском охотничьих угодьях, по результатам исследований в регионе обнаружено 13 видов птиц, принадлежащих к 25 семействам.

Ключевые слова: орнитофауна, мониторинг, птица, род, семейство, вид, Дехканабад, Сандыкли, охота, экотизм.

Annotation: the ecological features of the avifauna of the Kashkadarya region in the Dehkhanaabad and Sandyklin hunting grounds were studied; according to the results of research, 13 species of birds belonging to 25 families were found in the region.

Keywords: avifauna, monitoring, bird, genus, family, species, Dekhkanabad, Sandikli, hunting, ecotism.

XXI asr yer yuzidagi barcha landshaftlar bevosita yoki bilvosita inson faoliyati ta'siriga uchragan. Hayvonlar, ayniqsa madaniy landshaftlarda asosiy bioindikatsion ahamiyatga ega qushlarni faunasini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda.

Qushlar bog'lar, o'rmonlar, o'tloq va qishloq xo'jalik mahsulotlarni zararli hasharot hamda kemiruvchilardan himoyalaydi, o'simlik, daraxt va butalarning tarqalishiga moyillik qiladi, tuproqni o'g'itlaydi. Shu bilan birgalikda, yer kurrasida uchraydigan qushlarning 8800 turidan taxminan 1%, ya'ni 100 ga yaqin turi biozararlantiruvchilar hisoblanadi. Ular xomashyoga, materiallarga, texnika va inshootlarga zarar yetkazadi. Bir xil turlar muntazam sur'atda samolyotlar bilan to'qnashadi, boshqalari elektr uzatish liniyalari ustunlaridan uya qurish va ko'payish davrining keyingi pallalarida, hamda dam olish uchun foydalanish davomida energotarmoqlarda avariya keltirib chiqaradi, axlatlari bilan xiyobonlar, ko'chalar, yodgorliklar, binolar, ishlab chiqarish korxonalarini ifloslantiradi, metallar korroziyasini kuchayishini tezlashtiradi [6].

Binobarin, Qashqadaryo ornitofaunasi – uning tur tarkibi, tarqalishining o'ziga xosligi va ularning ekologik adaptatsiyasi yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu muammolar





viloyatimiz ornitofaunasi uchun dolzarb hisoblanib, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 19 turkum va 56 oilaga mansub 441 tur qush uchrashligi qayd etilgan[3].2019 yil nashr qilingan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining, II jild bo'limida 460 tur qush soni keltirilgan [5].


Bugungi kunda Qashqadaryo vohasi qushlarning tur tarkibini aniqlash, ayrim turlarini yashash hududlari bo'yicha miqdorini hamda mavsumiy dinamikasini aniqlash, ularning faunasini o'rganish va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

2021-2022 yillar davomida Qarshi davlat universiteti Zoologiya kafedrasini olimlari va "Qashqadaryo viloyati ovchilar va baliqchilar sport jamiyati"xodimlari bilan hamkorlikda Dehqonobod ovchilik xo'jaligi (Dehqonobod, G'uzor, Qamashi) hamda Sandikli ovchilik xo'jaligi (Mirishkor, Muborak, Koson) hududlari ornitofaunasi monitoring qilindi.Tadqiqotlarda qushlar monitoringi umum zoologiyada qabul qilingan [2, 3, 7]uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sandikli ovchilik xo'jaligiga qarashli hududlarda qushlarning 13 turkum, 25 oilaga mansub 66 turi qayd etildi(jadval -1). Chumchuqsimonlarga 24 ta, G'ozsimonlar va Rzankasimonlarga 9 tadan tur qush mansub bo'lib, ular ushbu hududdagi turkumlar ichida dominantligi aniqlandi.Tovuqsimonlar, Qo'ng'irsimonlar, Ko'kqarg'asimonlar Qizilishtonsimonlar va Sassiqqopishaksimonlar turkumlariga eng kam, 1 tadan qush turlari mansubligi qayd etildi. Ushbu hududga mansub qushlarning 36,36 % -Chumchuqsimonlarga, 13,63 % - G'ozsimonlar hamda Rzankasimonlar turkum vakillariga to'g'ri keldi.Tovuqsimonlar, Qo'ng'irsimonlar, Ko'kqarg'asimonlar, Qizilishtonsimonlar va Sassiqqopishaksimonlar turkum vakillarining har biri, ushbu hududga mansub, umumiy qushlarning -1,51 % ni tashkil etdi.

Dehqonobod ovchilik xo'jaligiga qarashli hududlarda ham qushlarning 13 turkum, 21 oilaga mansub, 49 tur qushlar uchrashi aniqlandi (jadval -1) . Bu hududda ham Chumchuqsimonlar turkumidan -16, G'ozsimonlar -9, Rzankasimonlar esa 7 turni tashkil etib, dominantlik qilishdi. Tovuuqsimonlar, Qo'ng'irsimonlar, Lochinsimonlar, Ko'kqarg'asimonlar, Qizilishtonsimonlar va Sassiqqopishaksimonlar turkumlarida esa, 1 tadan qush turi uchrashligi qayd etildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Sandikli va Dehqonobod ovchilik xo'jaligiga qarashli hududlarda, qushlarning turkumlar soni teng. Ammo qushlarning oilalar va turlar miqdori jihatidan, ikki hudud bo'yicha farq mavjud. Jumladan, qushlarning Bigiztumshuqlilar, Zavirushkalar, Chittaklar, So'fito'rg'aylar oilalari Sandikli ovchilik xo'jalida uchrashi qayd etildi.Dehqonobod ovchilik xo'jaligiga qarashli hududlarda bu 4 oilalar uchratilmadi.Dehqonobod ovchilik xo'jaligi hududida uchragan Chug'urchuqlar oilasi vakillari esa, Sandikli ovchilik xo'jaligi hududida ro'yhatga olinmadi.Qushlar son miqdori jihatidan ham Sandikli ovchilik xo'jaligi hududida Turnasimonlar, Rjankasimonlar, Laylaksimonlar, Lochinsimonlar va





Chumchuqsimonlar turkumi vakillari, Dehqonobod xo'jaligidagilardan ko'pligi bilan dominantlik qilishi aniqlandi.

So'ngi yillar davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilar esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Ayniqsa, ov ob'ektlari sifatida muhim ahamiyatga ega qushlarning yirik turlari, shuningdek, inson tomonidan ayovsiz o'zlashtirilayotgan, tashqi ta'sirga chidamli bo'lmagan ekotizimlarning endemik tarqalishi va cheklangan turlari katta xavf ostida [5].

jadval - 1

№	Sandikli ovchilik xo'jaligi hududi				Dehqonobod ovchilik xo'jaligi hududi			
	Turkum	Oila	Tur	%	Turkum	Oila	Tur	%
1	Ko' rakoyoqlilar	<i>Qoravoylar</i>	2	3,03	Ko' rakoyoqlilar	<i>Qoravoylar</i>	2	4,08
2	G' ozsimonlar	<i>O'rdaklar</i>	9	13,63	G' ozsimonlar	<i>O'rdaklar</i>	9	18,36
3	Kaptarsimonlar	<i>Kaptar'lar,</i>	3	4,54	Kaptarsimonlar	<i>Kaptar'lar</i>	3	6,12
4	Turnasimonlar	<i>Suvmoshaklar</i>	3	4,54	Turnasimonlar	<i>Suvmoshaklar</i>	2	4,08
5	Rjankasimonlar	<i>Loyxo' raklar,</i> <i>Baliqchilar</i>	9	13,63	Rjankasimonlar	<i>Loyxo' raklar, Baliqchilar</i>	7	14,28
6	Tovuqsimonlar	<i>Qirg'ovular</i>	1	1,51	Tovuqsimonlar	<i>Qirg'ovullar</i>	1	2,04
7	Qo'ng' irsimonlar	<i>Qo'ng' irlar</i>	1	1,51	Qo'ng' irsimonlar	<i>Qo'ng' irlar</i>	1	2,04
8	Laylaksimonlar	<i>Qarqaralar,</i> <i>Laylaklar</i>	5	7,57	Laylaksimonlar	<i>Qarqar'lar, Laylaklar</i>	4	8,16
9	Lochinsimonlar	<i>Qarchig' aylar</i>	6	9,09	Lochinsimonlar	<i>Qarchig' aylar</i>	1	2,04
10	Ko'kqarg' asimonlar	<i>Ko'ktarg' oqlar</i>	1	1,51	Ko'kqarg' asimonlar	<i>Ko'ktarg' oqlar</i>	1	2,04
11	Chumchuqsimonlar	<i>Jibljajibonlar,</i> <i>Bigiztumshuqlilar,</i> <i>Shaqshaqlar,</i> <i>Zavirushkalar,</i> <i>Qarg'alar,</i> <i>Chittaklar,</i> <i>chumchuqlar,</i> <i>Vyuroklar,</i> <i>Dehqonchumchuqlar,</i> <i>So'jito'rg' aylar,</i> <i>Moyqutlar</i>	24	36,36	Chumchuqsimonlar	<i>Jibljajibonlar, Shaqshaqlar,</i> <i>Chug'urchuqlar, Qarg'alar,</i> <i>Vyuroklar,</i> <i>Dehqonchumchuqlar, Moyqutlar</i>	16	32,65
12	Qizilishtonsimonlar	<i>Qizilishtonlar</i>	1	1,51	Qizilishtonsimonlar	<i>Qizilishtonlar</i>	1	2,04
13	Sassiipopishaksimonlar	<i>Sassiipopishaklar</i>	1	1,51	Sassiipopishaksimonlar	<i>Sassiipopishaklar</i>	1	2,04
Jami	13	24	66	100	13	21	49	100

Olib borilgan tadqiqot xulosalariga ko'ra, Sandikli va Dehqonobod ovchilik xo'jaligi hududidagi qushlarning oila va turlar sonini farqlanishi, birinchi navbatda ekologik muhit bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, Sandikli ovchilik xo'jaligi hududi, o'zining faunistik majmualarga ega ekotizimlarini deyarli saqlab qolgan.





Dehqonobod ovchilik xo'jaligi hududida qushlar faunasini cheklovchi omillar mavjudligi (Sho`rtangaz kimyo majmuasi, Uzbekistan GTL va boshqalar) bilan asoslash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Крейцберг-Мухина Е.А. и др. Птицы водоёмов Узбекистана и Центрально-Азиатского региона. Ташкент-Алма-ата. 2005.
2. Морозов, 1992; Н.С. Методология и методы учета в исследованиях структуры сообществ птиц: некоторые критические соображения. Успехи современной биологии, 1992, т.112, вып.1, с. 139-153.
3. Приедниекс Я., Курессо А., Курлавичюс П. Рекомендации орнитологическому мониторингу в Прибалтике. Рига, Зинатис, 1986, 63с.
4. Шерназаров Э.Ш., Жуманов М.А. Рыбопрудовое хозяйство «Балыкчи» // Важнейшие орнитологические территории. Ташкент, 2008. С.121-123
5. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, II жилд: Ҳайвонлар; Тошкент 2019: «ChinorENK» экологик-ноширлик компанияси. - 374 б.
6. J.X.Berdiyev, A.Y.Raxmatullayev, J.P.Sherqulova, Z.I.Izzatullayev, Y.I. Ametov, A.R.Jabborov. Biozararlanish // o'quv qo'llanma // Qarshi: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2021. 126 bet.
7. Tomialojc L. The combined version of the mapping method. - Bird census work and nature conservation. Gottingen, 1980, pp. 92-106.

